ajralib turardi. O‘zining hukmdor oilasi mansub ekanligini barchaning oldida ko‘z-ko‘z qilishni xush ko‘ruvchi Komron Mirzodan farqli o‘laroq, Humoyun Mirzo zodagon bo‘lsa-da, qo‘l ostidagi navkarlari bilan bir qatorda turishdan, hattoki ular bilan birga vaqt o‘tkazishdan hech qachon orlanmagan. Balkim, uning aynan sodda va ishonuvchan ekanligi boshiga shuncha musibatlar yog‘ilishiga sabab bo‘lgandir.

Komron Mirzoning ayanchli qismati xususida Pirimqul Qodirov o‘z romanlarida so‘z yuritadilar. Humoyun Mirzoning sofdilligi va rahmdilligidan foydalanib kelgan Komron Mirzo akasiga bir necha bor xiyonat qilgan edi. Boburiylarning Sherxon qo‘shinidan mag‘lub bo‘lishlari va Hindiston taxtidan mahrum bo‘lishlariga asosiy sabab ham aynan shahzodalarning yakdillikda harakat qilmaganliklarida edi. Humoyun Mirzo esa doim ukalariga sulh yo‘lini tutishni taklif qilib, ularni kechirib keldi. Jondan aziz merosxo‘ri Akbarning hayotini xavf ostiga qo‘yganida ham, ukasi Hindol Mirzoning bevaqt o‘limiga sabab bo‘lganida ham g‘azabini ichiga yutdi. Ammo sabr kosasi to‘lgan Humoyun Mirzo otasi Bobur Mirzoning esdaliklaridan keltirilgan *“Davlat ishida qattiq turilmasa, murod hosil bo‘lmagay!”* degan fikrlarini yodga oladi va ukasining taqdiri bilan bog‘liq so‘nggi qarorni qabul qiladi.

Humoyun Mirzo bir necha bor xiyonat yo‘liga kirgan ukasini qanday qilib jazolash xususida bir necha kun davomida chuqur o‘ylaydi. Bunday ichiqora va subutsiz ukaning jazosi o‘lim ekanligi, shubhasiz edi. O‘g‘lining dog‘ida yillar davomida kuyib yurgan Hamidabonu ham, tug‘ishgan opasi Gulbadan begim ham Humoyundan Komronni o‘limga hukm qilishni so‘rashadi. Ammo Humoyun Mirzo otasi Bobur Mirzoning *“ukalari shunga munosib bo‘lsalar-da, hech qachon ularning qonini to‘kmaslikni”* so‘rab qilgan vasiyatini yodga oladi. To‘g‘ri yo‘lni topish uchun otasining esdaliklarini qo‘lga oladi. Shunda ulug‘ bobokaloni Amir Temurning ichki kurashlarni kuchaytirmaslik uchun o‘z avlodidan bo‘lgan xiyonatkor beklarning ko‘zini ko‘r qilganligi xususidagi voqeotlarga ko‘zi tushadi. Humoyun ham ukasining qilmishlari uchun bu eng to‘g‘ri tadbir bo‘lishini tushunib yetadi: *“Immediately, Humayun knew that this must be Kamran’s fate. His threat would be extinguished with his sight. No rebellious chief could ever again consider Kamran a rival to Humayun. Yet his half-brother would have time to consider and perhaps to repent before he was called to eternal judgement”* [2;335-b.]. Humoyun Mirzoning shafqatsiz, qonxo‘r bo‘lmaganligini shu satrlarni o‘qib tushunishimiz mumkin. Balkim, bu unga otasi Bobur Mirzodan o‘tgandir. Bobur Mirzo ham taxt uchun unga qarshi kurash olib borgan ukasi Jahongir Mirzoni avf etadi, hatto umrining oxirigacha tinchlik va farovonlikda yashashi uchun o‘z qanoti ostiga oladi. Humoyun Mirzo ham o‘z tug‘ishgan ukasini o‘limga hukm qilishi mumkin edi, ammo boshqa maqbulroq jazo chorasini ko‘rishni afzal ko‘radi. Akasidan avf tilab kelgan Askariy Mirzoning ham hayotini saqlab qoladi, gunohlaridan forig‘ bo‘lishi niyatida Haj safariga xavfsiz borishi uchun ham sharoit yaratadi. Afsuski, Haj safariga borish yo‘lida Askariy Mirzo qaroqchi va talonchilar hujumiga uchrab, halok bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Alex Rutherford qalamiga mansub mashhur tarixiy-biografik romani mutolaa etar ekanmiz, ingliz yozuvchisining Humoyun Mirzo hayot yo‘lini boricha ochib berganligiga guvoh bo‘ldik. Bu dunyoda mukammal inson bo‘lmaganidek, shoh va sarkardaning barcha yutuqlari-yu, kamchiliklari ham to‘laligicha kitobxonlarga havola etilgan. Yozuvchilarning adabiy mahorati, turli badiiy usullardan mohirona foydalanishlari kitobxonlar qiziqishini yanada oshirish tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qodirov P. Avlodlar dovoni. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari”, 2018, 671-bet.
(2). Rutherford A. Brothers at war. London, Headline publishing group, 2011, 407 p.
(3). Jaffar S.M. The Mughal Empire from Babur to Aurangzeb. Peshawar, Kissa Khani, 1936, 491 p.
(4). Gulbadanbegim. Humoyunnoma. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1988.

Ro‘zmetov Hamid Qalandarovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Roman-german filologiyasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi),
Shonazarova Sevinchoy Davronbek qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Lingvistika: fransuz tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti; E-mail: shonazarovasevinchoy67@gmail.com)

STENDALNING “QIZIL VA QORA” ROMANIDA STILISTIK FIGURALARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr fransuz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Stendalning “Qizil va qora” romanidagi stilistik figuralar ya’ni til va uslubga oid retorik qurilmalar, metaforalar, simvolik elementlar va tasviriy vositalarning badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor stilistik figuralarning ijodiy vazifasi, ularning ma’no kengaytirish, obrazlarni jonlantirish, psixologik chuqurlikni berish va roman voqealarining dramatik ifodasidagi roliga qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *stilistik figuralar, estetika, patetik ohang, retorika, simvolik tizim, simvolika, ambitsiya, ranglar simvolikasi, contrast, psixologik realism, qahramon ruhiyati, semantik yuklama.*

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СТИЛИСТИЧЕСКИХ ФИГУР В РОМАНЕ СТЕНДАЛЯ «КРАСНОЕ И ЧЁРНОЕ»

Аннотация. *В данной статье анализируется художественно-эстетическое значение стилистических фигур, то есть риторических средств языка и стиля, метафор, символических элементов и изобразительных средств в романе Красное и чёрное французского писателя Стендаля, одного из крупнейших представителей французской литературы XIX века. Основное внимание уделяется творческой функции стилистических фигур, их роли в расширении значения, оживлении художественных образов, передаче психологической глубины и в драматическом выражении событий, происходящих в романе.*

Ключевые слова: *стилистические фигуры, эстетика, патетический тон, риторика, символическая система, символика, амбиция, символика цветов, контраст, психологический реализм, психология героя; семантическая нагрузка.*

THE ARTISTIC AND AESTHETIC SIGNIFICANCE OF STYLISTIC FIGURES IN STENDHAL'S NOVEL "THE RED AND THE BLACK"

Annotation. *This article analyzes the artistic and aesthetic significance of stylistic figures-namely rhetorical devices related to language and style, metaphors, symbolic elements, and expressive means-in the novel The Red and the Black by the French writer Stendhal, one of the major representatives of twentieth-century French literature. The main focus is on the creative function of stylistic figures, their role in expanding meaning, enlivening literary images, conveying psychological depth, and expressing the dramatic nature of the events depicted in the novel.*

Keywords: *Stylistic devices, aesthetics, pathetic (elevated) tone, rhetoric, symbolic system, symbollism, ambition, color symbolism, contrast, psychological realism, character psychology, semantic load.*

Kirish. XIX asr fransuz adabiyoti jahon adabiy jarayonida realizm va romantizm oʻrtasidagi murakkab oʻtish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davr adabiyotida inson shaxsiyati, uning jamiyat bilan munosabati, ichki ruhiy ziddiyatlari va ijtimoiy muhit ta'siri markaziy masalaga aylanadi. Ana shunday murakkab estetik va ijtimoiy jarayonlar fonida Stendal (Henri Beyle) ijodi shakllanib, u fransuz tanqidiy realizmining yetuk namoyandalaridan biri sifatida adabiyot tarixida mustahkam oʻrin egallaydi.

Stendalning "Qizil va qora" romani (1830) nafaqat ijtimoiy-psixologik roman sifatida, balki stilistik jihatdan ham nihoyatda mukammal asar hisoblanadi. Ushbu roman orqali muallif jamiyatdagi tabaqaviy tengsizlik, ikkiyuzlamachilik, diniy va siyosiy institutlarning soxtaligi hamda shaxsiy ambitsiya bilan axloqiy qadriyatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarni badiiy vositalar yordamida chuqur ochib beradi. Asarning markazida turgan Julien Sorel obrazi esa inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli tabiatini ifodalovchi timsol sifatida namoyon boʻladi.

Badiiy asarning estetik ta'sirchanligi, avvalo, unda qoʻllanilgan stilistik figuralar bilan chambarchas bogʻliqdir. Metafora, simvol, ironiya, kontrast, ichki monolog kabi stilistik vositalar matnning nafaqat badiiy bezagi, balki uning gʻoyaviy-mazmuniy tayanch nuqtalari hisoblanadi. "Qizil va qora" romanida ushbu figuralar qahramonlarning ruhiy holatini ochish, ijtimoiy muhitni tanqid qilish hamda oʻquvchida kuchli estetik taassurot uygʻotish vazifasini bajaradi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi Stendalning "Qizil va qora" romanida qoʻllanilgan stilistik figuralarning badiiy-estetik vazifasini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida metafora, simvolika, ironiya, kontrast va ichki monologlarning romandagi funksional roli, ularning psixologik realizmni shakllantirishdagi ahamiyati hamda ijtimoiy tanqidni ifodalashdagi oʻrni yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi. Stendal ijodi va "Qizil va qora" romani yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar adabiyotshunoslikda salmoqli oʻrin tutadi. Fransuz adabiyotshunoslari ushbu asarni realizm va romantizm sintezi sifatida baholab, undagi psixologik tahlilga alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, E.Auerbach "Mimesis" asarida Stendal realizmining asosiy xususiyatlarini ochib berib, uning badiiy tafakkuridagi psixologik chuqurlikni ta'kidlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda romandagi ranglar simvolikasi, ayniqsa "qizil" va "qora" ranglarning falsafiy va estetik talqini keng oʻrganilgan. M.Scott va N.Li[1] kabi olimlar ranglar orqali Julien Sorelning ichki ziddiyatlari va jamiyat bilan qarama-qarshiligi ifodalanganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, romandagi ironiya va satiraning ijtimoiy funksiyasi SparkNotes va CliffsNotes kabi manbalarda umumiy tarzda sharhlangan boʻlsa-da, ularning lingvopoetik jihatdan chuqur tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Oʻzbek adabiyotshunosligida ham Stendal ijodiga qiziqish mavjud boʻlib, asosan romanning gʻoyaviy-mazmuniy jihatlari va obrazlar tizimi oʻrganilgan. Biroq stilistik figuralarning badiiy-estetik vazifasi

[1] Li, N.Colour Symbolism in Le Rouge et Le Noir.Academy Publication, 2015.

alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu jihatdan, mazkur maqola mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda stilistik tahlil, semantik tahlil va psixologik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Stendalning "Le Rouge et le Noir" romanining fransuzcha asl matni hamda uning tarjimalari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida stilistik figuralar matn kontekstida tahlil qilinib, ularning funksional va estetik vazifalari aniqlandi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali romandagi stilistik vositalarning boshqa realizm namunalari bilan umumiy va farqli jihatlari ko'rsatib berildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda stilistik figuralar faqat badiiy vosita sifatida emas, balki psixologik realizm va ijtimoiy tanqidni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi.

Stilistik figuralar tushunchasi va tasnifi. Stilistik figuralar bu badiiy matnda ma'no ifodalashni kuchaytiruvchi, nutqqa emotsional va estetik tus beruvchi til vositalaridir. Ular oddiy til birliklaridan farqli ravishda ko'chma ma'no, obrazlilik va assotsiativlik asosida ishlaydi. Adabiyotshunoslikda stilistik figuralar metafora, metonimiya, simvol, ironiya, kontrast, giperbola, ichki monolog kabi turlarga bo'linadi.

Stendal ijodida aynan metafora, simvolika va ironiya yetakchi o'rin egallaydi. Bu figuralar orqali muallif nafaqat voqealarni tasvirlaydi, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochadi, jamiyatni tanqid qiladi va o'quvchini fikrlashga undaydi.

Metaforalarning badiiy va psixologik vazifasi. Metafora Stendal uslubining ajralmas qismi bo'lib, u romanda qahramon ruhiyatini ochishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Julien Sorelning ichki holati ko'pincha jang, olov, zulmat kabi obrazlar orqali ifodalanadi. Bu metaforalar qahramonning ichki kurashi, ambitsiya va qo'rquv o'rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Masalan, Julienning qalbi "jang maydoni" sifatida tasvirlanishi uning doimiy ichki kurashda ekanini ko'rsatadi. Bu metafora psixologik realizmni kuchaytirib, o'quvchiga qahramon ruhiy holatini chuqurroq his etish imkonini beradi.

Ranglar simvolikasi va ularning estetik vazifasi. Stendalning "Qizil va qora" romani nomining o'ziyoq chuqur ramziy ma'noga ega bo'lib, asar g'oyasining markazida turgan asosiy estetik konsepsiyani ifodalaydi. "Qizil" va "qora" ranglar romanda faqat vizual belgilar emas, balki qahramon ruhiyati va ijtimoiy muhitni aks ettiruvchi murakkab simvolik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ranglar simvolikasi orqali muallif inson ichki kechinmalari va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilikni badiiy jihatdan ifodalaydi.

Qizil rang romanda ehtiros, jasorat, ambitsiya[1] va idealizm ramzi sifatida talqin qilinadi. Julien Sorel Napoleonga bo'lgan hurmati orqali qizil rang bilan bog'langan harbiy shon-shuhrat va ijtimoiy yuksalish orzularini qalbida saqlaydi. Uning ongida qizil rang jasorat va erkinlik timsoli bo'lib, u past tabaqadan chiqib, jamiyatning yuqori pog'onasiga ko'tarilish istagini ifodalaydi. Qizil rang shu ma'noda Julienning ichki energiyasi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi.

Qora rang esa romanda mutlaqo boshqa estetik va semantik yuklama bilan ishlatiladi. U diniy muhit, jamiyatning qattiq qoidalari, ijtimoiy cheklov va ma'naviy zulmatni ifodalaydi. Julien ruhoniy kiyimini kiygan paytlarda qora rang uning ichki erkinligi cheklanganini, jamiyat talablari oldida o'z orzularidan voz kechishga majbur bo'lganini anglatadi. Shu tariqa, qora rang qahramon uchun ichki qamoq ramziga aylanadi.

Qizil va qora ranglar o'rtasidagi kontrast romanning dramatik tarangligini kuchaytiradi. Bu kontrast orqali Stendal inson ruhiyatidagi ikki qutblilikni – idealizm va realizm, orzu va majburiyat, ehtiros va itoat o'rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Ranglar simvolikasi romanning estetik ta'sirchanligini oshirib, o'quvchini qahramon ruhiy holatini chuqurroq anglashga undaydi.

Ironiya va satiraning ijtimoiy funksiyasi. Ironiya Stendal ijodida ijtimoiy tanqidning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. "Qizil va qora" romanida ironik tasvirlar orqali jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik, axloqiy soxtalik va rasmiyatchilik keskin tanqid qilinadi. Muallif ochiq tanqid o'rniga nozik ironiya va satiradan foydalanib, o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Julien Sorel obrazida ironiya ayniqsa kuchli namoyon bo'ladi. U ruhoniy bo'lishga intiladi, biroq ich-ichidan diniy e'tiqodga ega emas. Bu holat jamiyatdagi diniy institutlarning tashqi ko'rinish bilan ichki mazmun o'rtasidagi ziddiyatini ochib beradi. Julienning ruhoniylik yo'lini tanlashi e'tiqod natijasi emas, balki ijtimoiy yuksalish vositasi sifatida tasvirlanadi. Ana shu holat romandagi kuchli ironik effektni yuzaga keltiradi.

Satira orqali Stendal aristokratiya va ruhoniylar tabaqasining axloqiy inqirozini fosh etadi. Ular diniy va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilgan holda, amalda o'z manfaatlarini ustun qo'yadilar. Muallif bu holatni keskin fosh etmasdan, balki kinoyali tasvirlar orqali ifodalaydi. Natijada satira estetik zavq bilan birga tanqidiy fikrlashni ham shakllantiradi.

---

[1] Sthendal. Le Rouge et le Noir. Paris, Levasseur, 1830.

Ironiyaning estetik vazifasi shundaki, u romanni og‘ir didaktik asarga aylantirmasdan, o‘quvchida qiziqish va ichki mulohaza uyg‘otadi. Shu bilan birga, u jamiyatning ichki muammolarini ochib beruvchi kuchli badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Kontrast va dramatik taranglik. Kontrast romanning kompozitsion va stilistik tuzilishida muhim o‘rin egallaydi. Stendal qarama-qarshi tushunchalar va holatlarni yonma-yon qo‘yish orqali dramatik taranglikni kuchaytiradi. Julienning ichki olami va tashqi jamiyat, orzular va real hayot, sevgi va manfaat o‘rtasidagi kontrastlar asarning asosiy konfliktini shakllantiradi.

Julienning ichki dunyosi ehtirosli va idealistik bo‘lsa, u yashayotgan jamiyat sovuq va manfaatparast sifatida tasvirlanadi. Ushbu kontrast qahramonning doimiy ichki iztiroblariga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, Julienning Madame de Renal va Mathilde de La Mole bilan munosabatlarida sevgi va ijtimoiy ambitsiya o‘rtasidagi qarama-qarshilik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kontrast, shuningdek, ranglar simvolikasida ham o‘z ifodasini topadi. Qizil va qora ranglarning qarama-qarshiligi romanning umumiy estetik konsepsiyasini belgilab beradi. Bu ranglar faqat qahramon ruhiyatini emas, balki butun jamiyatning ikki qutbli tabiatini ham ifodalaydi.

Dramatik taranglik aynan mana shu kontrastlar orqali yuzaga keladi. O‘quvchi qahramonning ichki kurashiga guvoh bo‘lar ekan, romanning estetik ta’siri yanada kuchayadi.

Ichki monologlar va psixologik realism. Stendal psixologik realizmning asoschilaridan biri sifatida qahramon ichki monologlariga katta e’tibor qaratadi. Julien Sorelning ichki fikrlari, o‘z-o‘zi bilan olib boradigan suhbati romanning eng muhim stilistik elementlaridan biridir. Masalan, «Je l’aime… et pourtant je me méprise de l’aimer.L’amour me rend faible et je veux être fort, même contr mon coeur.. ». Tarjimada; «Men uni sevaman…ammo shu sevgim uchun o‘zimni mensimayman. Sevgi meni zaiflashtiradi,men esa hatto yuragimga qarshi bo‘lsa ham kuchli bo‘lishni istayman». Julien Sorelning bu ichki monologi (yoki unga juda yaqin bo‘lgan holat) “Qizil va qora” romanida sevgi va mag‘rurlik (orgueil, fierté, amour-propre) o‘rtasidagi eng chuqur va dramatik ziddiyatni ifodalaydi. Bu Julienning shaxsiyati markazidagi asosiy konflikt: u o‘zini Napoleon davrining qahramonidek ko‘radi, kuchli, mustaqil va jamiyatda yuksalishga qodir deb hisoblaydi, lekin haqiqiy sevgi (ayniqsa, Madame de Renalga bo‘lgan tuyg‘usi) uni “zaif” qiladi deb o‘ylaydi. Ichki monologlar orqali qahramonning haqiqiy yuzini, uning qo‘rquvlari, ambitsiyalari va ruhiy iztiroblari ochib beriladi.

Ichki monologlar Julien obrazini chuqur va tirik qiladi. O‘quvchi qahramonning tashqi harakatlari ortida yashiringan ichki kechinmalarni anglaydi. Bu esa romanning psixologik ishonchliligini ta’minlaydi. Ichki monologlar orqali Stendal qahramonning jamiyatga moslashish jarayonidagi ruhiy iztiroblarini badiiy tarzda ifodalaydi.

Psixologik realizmning estetik vazifasi shundaki, u o‘quvchini qahramon bilan ruhiy jihatdan bog‘laydi. Julienning ichki kurashlari o‘quvchida hamdardlik va tushunish hissini uyg‘otadi. Shu tariqa ichki monologlar romanning badiiy-estetik qiymatini sezilarli darajada oshiradi.

Narrativ struktura va muallif pozitsiyasi. “Qizil va qora” romanining narrativ tuzilishi Stendalning badiiy mahoratini yaqqol namoyon etadi. Asarda uchinchi shaxsdagi hamma narsani biluvchi (omniscient) narrator qo‘llaniladi, biroq bu narrator mutlaqo betaraf emas. Muallif voqealarni ironik masofadan turib bayon qiladi va shu orqali o‘quvchining voqelikka tanqidiy qarashini shakllantiradi.

Narrator Julien Sorelning ichki dunyosiga tez-tez murojaat qilib, uning ruhiy kechinmalarini chuqur ochib beradi. Shu bilan birga, jamiyat vakillari tasvirida muallif kinoya va istehzo vositalaridan foydalanadi. Bu holat romanning umumiy estetik ohangini belgilaydi va undagi ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi.

Narrativ struktura romandagi dramatik taranglikni bosqichma-bosqich oshirib boradi. Julienning ijtimoiy yuksalishi, keyinchalik, fojiali qulashiga olib keluvchi voqealar ketma-ketligi badiiy mantiq asosida qurilgan. Muallif har bir epizodni stilistik figuralar bilan boyitib, syujet rivojiga estetik chuqurlik bag‘ishlaydi.

Personajlararo munosabatlarda stilistik vositalar. Romandagi personajlararo munosabatlar ham stilistik figuralar orqali ifodalanadi. Julien Sorel va Madame de Renal o‘rtasidagi munosabatlar dastlab sof hissiylik bilan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik, ichki ziddiyat va aybdorlik hissi bilan murakkablashadi. Bu munosabatlar metafora va ichki monologlar orqali chuqur ochib beriladi. Masalan, Madame de Renal xonimning sevgi va aybdorliko’rtasidagi ichki kurashiga misol: Le départ de Julien ne fit point cesser les transports qui l'agitaient malgré elle, et ses combats avec les remords qui la déchiraient. Mon Dieu! être heureux, être aimée... et damnée sans rémission! «Adulteress! Ce mot terrible vint frapper son imagination...».

Tarjimada: «Julienning ketishi uning ichidagi hayajonni to‘xtatmadi va vijdon azobi uni yirtib tashlardi. Xudo yo, baxtli bo‘lish, sevish... va abadiy la’natlangan bo‘lish!»

«Fohisha! Bu dahshatli so‘z uning xayolida chaqnadi...».

Bu parchada «remords qui la déchiraient» (yirtib tashlovchi aybdorlik) metaforasi orqali sevgi baxti va gunoh hissi o‘rtasidagi ziddiyat ochiladi: madam de Rênal sevgi tufayli baxtli, lekin diniy vijdon uni "la’natlangan" deb his qiladi. Bu Julien va uning munosabatlarini murakkablashtiruvchi asosiy ichki konfliktni ko‘rsatadi.

Mathilde de La Mole bilan bo‘lgan munosabatlar esa mutlaqo boshqa estetik ruhda tasvirlanadi. Bu yerda sevgi ehtirosdan ko‘ra ambitsiya va ijtimoiy o‘yin bilan bog‘liq holda ko‘rsatiladi. Julien uchun Mathilde sevgisi maqsadga erishish vositasiga aylanadi. Muallif bu holatni ironik tarzda tasvirlab, jamiyatdagi munosabatlarning sun’iyligini fosh etadi.

Personajlararo munosabatlarda kontrast muhim rol o‘ynaydi. Madame de Renal-samimiylik va tabiiylik timsoli bo‘lsa, Mathilde – sovuqqon aql va aristokratik g‘urur ramzidir. Bu qarama-qarshilik Julienning ichki tanlovlarini yanada murakkablashtiradi.

Lingvopoetik tahlil. Lingvopoetik tahlil romandagi til birliklarining estetik funksiyasini ochib beradi. Stendal tili sodda, lo‘nda va aniq bo‘lib, u ortiqcha bezaklardan qochadi. Shu bilan birga, stilistik figuralar o‘rinli va maqsadli qo‘llanilib, matnning obrazlilik darajasini oshiradi.

Metafora va simvollar romanda asosiy g‘oyaviy yukni ko‘taradi. Ranglar, kiyimlar, makon tasviri lingvopoetik jihatdan muhim elementlar hisoblanadi. Masalan, ruhoniylar makoni qorong‘i va sovuq ranglarda tasvirlanib, jamiyatdagi ma’naviy turg‘unlikni ifodalaydi.

Sintaktik qurilish ham estetik vazifani bajaradi. Qisqa va keskin gaplar Julienning ichki hayajonini ifodalasa, uzun va murakkab jumlalar uning ichki mulohazalarini aks ettiradi. Bu esa romanning psixologik realizmini kuchaytiradi.

Stendal uslubining o‘ziga xosligi. Stendal uslubi realizm va romantizm elementlarining uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi. U romantik ehtiros va idealizmni realist tasvir va psixologik tahlil bilan birlashtiradi. Shu bois uning asarlari o‘quvchini nafaqat hissiy, balki intellektual jihatdan ham jalb qiladi.

Muallif stilistik figuralardan me’yorida foydalanib, asarni ortiqcha patetik ohangdan[1] saqlaydi. Ironiya va kontrast Stendal uslubining eng muhim belgilaridan bo‘lib, ular orqali muallif jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

Qizil va qora ramzining falsafiy talqini. “Qizil” va “qora” ranglar romanda faqat estetik belgilar emas, balki falsafiy tushunchalar sifatida ham talqin qilinadi. Qizil – harakat, ehtiros va hayotiy energiya ramzi bo‘lsa, qora taqdir, cheklov va muqarrarlik timsolidir. Julien hayoti ushbu ikki kuch o‘rtasidagi kurash maydoniga aylanadi.

Bu ranglar orqali Stendal inson erkinligi va jamiyat qonunlari o‘rtasidagi abadiy ziddiyatni ko‘rsatadi. Qahramonning fojiali taqdiri esa ushbu ziddiyatning yechimsizligini ifodalaydi.

“Qizil va qora” romanining stilistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Stendal badiiy til vositalaridan tasodifiy emas, balki aniq estetik va g‘oyaviy maqsadlar asosida foydalangan. Metafora, simvolika, ironiya, kontrast va ichki monologlar romanning barcha qatlamlarida sujet, obrazlar tizimi, narrativ struktura va til darajasida faol ishtirok etadi.

Metaforalar orqali qahramonlarning ichki ruhiy holati ifodalanib, psixologik realizm ta’minlanadi. Ranglar simvolikasi esa romanning markaziy g‘oyasini shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatni umumlashtiruvchi estetik model sifatida namoyon bo‘ladi. Ironiya va satira orqali Stendal jamiyatdagi axloqiy inqiroz, diniy va siyosiy institutlarning soxtaligini fosh etadi. Bu tanqid ochiq shaklda emas, balki badiiy kinoya orqali berilgani asarning estetik qiymatini yanada oshiradi.

Kontrast romanning dramatik dinamikasini ta’minlab, qahramon taqdiridagi keskin burilishlarni asoslaydi. Ichki monologlar esa qahramonning ruhiy evolutsiyasini izchil ochib beradi va o‘quvchini qahramon bilan psixologik jihatdan bog‘laydi. Shu jihatdan, Stendal romanini psixologik realizmning yetuk namunasi sifatida baholash mumkin.

Umumiy ilmiy xulosalar. Stendhalning “Qizil va qora” romani fransuz adabiyotidagi psixologik realizmning eng yorqin namunasidir. Unda qahramonning ichki dunyosi, jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va shaxsiy ambitsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatlar stilistik vositalar orqali chuqur va realistik tarzda ochib beriladi. Roman o‘zining murakkab badiiy tizimi bilan ajralib turadi, bu yerda har bir stilistik figura aniq maqsadga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Stendalning “Qizil va qora” romani stilistik figuralar jihatidan boy va murakkab badiiy tizimga ega bo‘lib, ularning har biri aniq estetik va funksional vazifani bajaradi.

2. Metafora va simvolika romanda psixologik realizmni shakllantiruvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Ular qahramon ruhiy holatini chuqur ochib, badiiy obrazlarni jonlantiradi. Masalan, roman sarlavhasidagi

[1] Prévost J. La Création chez Sthendal. Paris, 1951.

"qizil" (rouge) rang harbiy shon-shuhrat, ehtiros va Napoleon davri orzusini, "qora" (noir) rang esa ruhoniylik, o‘lim va jamiyat bosimini ramziy ifodalaydi.

«Qizil va qora» – armiya formasining qizil rangi (ehtiros, shon-shuhrat) va cherkovning qora libosi (o‘lim, bosim) ramzi, shuningdek, Julienning ichki kurashini ifodalaydi.

3. “Qizil” va “qora” ranglar romanning markaziy ramzi bo‘lib, ular orqali shaxsning ichki ehtiroslari va jamiyat bosimi o‘rtasidagi qarama-qarshilik ifodalanadi.

4. Ironiya va satira jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni fosh etishda muhim stilistik vosita bo‘lib, asarning tanqidiy ruhini kuchaytiradi. Masalan, Julien Mathilde bilan munosabatda o‘zini "qirolicha quchog‘ida" his qilishi ironik tarzda uning ambitsiyasi va sun’iy "fath"ini ko‘rsatadi.

Fransuzcha: «Tandis qu’il maudissait le caractère de Mathilde, il l’aimait cent fois plus ; il lui semblait tenir une reine dans ses bras».

Tarjimada: «Mathildening xarakterini la’natlagan holda, uni yuz barobar ko‘proq sevardi; unga qirolicha quchog‘ida turgandek tuyulardi». Bu yerda ironiya kuchli: chin sevgi emas, balki ijtimoiy g‘alaba va rol o‘ynash.

5. Kontrast va ichki monologlar romanning dramatik va psixologik chuqurligini ta’minlab, o‘quvchida kuchli estetik taassurot uyg‘otadi. Masalan, Julienning suddagi nutqidagi dramatik kontrast -o‘zini aybLashi va jamiyatni tanqid qilishi.

Fransuzcha: «Mon crime est atroce, et il fut prémédité. J'ai donc mérité la mort, messieurs les jurés. Je n’ai pas l’honneur d’appartenir à votre classe».

Tarjimada: «Mening jinoyatim dahshatli va u oldindan rejalashtirilgan edi. Shuning uchun men o‘limga loyiqman, janoblar... Men sizning sinfingizga mansub bo‘lish sharafiga ega emasman».

Bu yerda patetik ohang kuchli, ammo ironiya ("je n’ai pas l’honneur" – hurmat bilan aytilgan haqorat) bilan muvozanatlashtirilgandek tuyiladi go‘yo.

6. Stendal uslubi realizm va romantizm elementlarining uyg‘unlashuvi bilan ajralib turadi va bu jihat romanni adabiyot tarixida alohida o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi.

Mazkur ilmiy maqola Stendal ijodini stilistik jihatdan o‘rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, fransuz adabiyoti, stilistika va lingvopoetika yo‘nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun qo‘shimcha manba bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Auberbach E. Mimesis: The Representation of Reality in Western Literature. Princeton: Princeton University Press, 1953.

(2). Li N. Colour Symbolism in Le Rouge et le Noir. Academy Publication, 2015.

(3). Martineau H. Le Roman de Stendhal. Paris, Le Divan, 1945.

(3). Prévost J. La Création chez Stendhal. Paris, Mercure de France, 1951.

(4). Scott M. C. Symbolic Meanings of Red and Black in Stendhal’s Novel. Theory and Practice in Language Studies, 2015.

(5). Stendhal. Le Rouge et le Noir. Paris, Levavasseur, 1830.

(6). Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Toshkent, “Akademnashr”, 2017.

(7). Latipova J. Qizil va qora romanida inson ruhiyati talqini. Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools, 2024.

(8). Nurullayeva M. Qizil va qora asaridagi obrazlar tahlili. Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti ilmiy maqolalar to‘plami, 2025.

(9). To‘rabekov H. (tarjima). Qizil va qora. Toshkent, “Yoshlar nashriyot uyi’, 2019.

(10). Yo‘ldoshev J.A. Stendalning “Qizil va qora” romani frazeologizmlari: tarjima va lingvomadaniy tahlil. Modern Science and Research, 2024.

Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); sulaymonovahulkar17@gmail.com)

ABU BAKR XORAZMIY IJODIY BIOGRAFIYASINING MANBAVIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada X asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi, shoir va nasrnavis Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (935–993) ilmiy biografiyasini yaratishda asos bo‘ladigan adabiy-bibliografik manbalar tahlil qilinadi. Unda adib zamondoshlari tomonidan yaratilgan tazkiralar, tarixiy bibliografik asarlar, muallif asarlari va zamonaviy sharqshunoslikdagi ilmiy tahlillar asosida Xorazmiyning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati, adabiy muhitdagi o‘rni haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abu Bakr Xorazmiy, ilmiy biografiya, adabiy manbalar, bibliografik asarlar, tazkira, Abu Mansur Saolibiy.*